



Elbek RASULOV,
"TIQXMMI" MTU tayanch doktoranti
E-mail: Elbekrasulov777@gmail.com

"TIQXMMI" MTI professori, t.f.d. SH.O'ljayeva taqrizi asosida

HISTORY OF TEXTILES AND POTTERY IN THE TIMURID EMPIRE

Annotation

This article examines the textile and pottery industries of the era of Amir Temur and the Timurids, examining local products produced in textiles and high-quality products imported from neighboring countries. Porcelain, earthenware, ceramics, and other products produced in pottery were also studied.

Key words: Textiles, crimson, cotton, velvet, gray, silk, earthenware, porcelain, ceramics.

ИСТОРИЯ ТЕКСТИЛЯ И КЕРАМИКИ В ИМПЕРИИ ТИМУРИДОВ

Аннотация

В статье рассматривается текстильное и гончарное производство эпохи Амира Темура и Тимуридов. Изучаются местные текстильные изделия и высококачественные изделия, импортируемые из соседних стран. Также изучаются фарфор, фаянс, керамика и другие изделия гончарного производства.

Ключевые слова: Текстиль, малиновый, хлопок, бархат, серый, шёлк, фаянс, фарфор, керамика.

TEMURIYLAR SALTANATIDA TO'QIMACHILIK VA KULOLCHILIK TARIXI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davridagi hunarmandchilikning to'qimachilik hamda kulolchilik sohalari tadqiq etilgan bo'lib, to'qimachilikda ishlab chiqarilgan mahalliy mahsulotlar va qo'shni mamlakatlardan olib kelingan yuqori sifatli mahsulotlar o'rganildi. Kulolchilikda ham ishlab chiqarilgan chinini, sopol, keramika va boshqa mahsulotlar tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: To'qimachilik, qirmizi, fo'ta, baxmal, bo'z, shoyi, sopol, chinini, keramika.

Kirish. Har bir davlat va xalq tarixida hunarmandchilikning qaysi bir tarmoqlari bilan shug'ullanib kelgan. Temuriylar davrida ham Mavorounnahr aholisi hunarmandchilikning shu davrda mavjud hunarmandchilik tarmoqlarining jamiki sohalari o'zining eng yuqori nuqtasiga ko'tarildi. Shu qatori hunarmandchilikning to'qimachilik va kulolchilik tarmog'i ham eng yuqori darajada rivojlandi. Bu ikki sohaning rivojlanishi, albatta, jamiyat ta'labi oshib borgan sari yanada rivojlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Temuriylar davri hunarmandchiligi tarixi ko'plab yozma manbalarda va tarixiy tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Yozma manbalarda hunarmandchilik sohaslariga alohida toxtab o'tilmagan bo'lsada, bozorlar va boshqa ta'riflar qatorida uchratish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda mavzuga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Yurtimizda va horijda maqolalar elon qilinmoqda. Lekin ushbu tadqiqotlarni o'z o'rnida albatta tanqidiy yondashuv asosida tahlil qilish shart.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida ko'plab yozma manbalar asosida Temuriylar davri hunarmandchilik sohalari tanqidiy o'rganildi. Ularning shahar va davlatdagi ahamiyati ochib berildi va tashqi savdoning oshishiga qo'shgan hisssasi ham o'rganildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda Temuriylar davlatining rivojida hunarmandchilikning o'rni ochib berildi. Hunarmandchilik rivojiga o'z o'rnida mahalliy va chet o'lkalarda mahsulotga bo'lgan talabning ortishi ham xizmat qildi.

Amir Temurning hukmronlik davri Mavorounnahrda ko'plab shaharlar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Avvalgi davrlarda qo'shni hukmdorlarning hujumlari, o'zaro urushlar va amaldorlarning haddan ziyod o'zboshimchaligidan tez-tez

jabr ko'rib turgan shaharlar qudratli oliy hokimiyat o'rnatilganidan keyin markaziy hukumat himoyasiga o'tdi. Bularning bari hunarmandchilik sanoati, shahar savdosi va tashqi savdo rivojlanishiga imkon yaratdi, tashqi savdo esa uz bozor uchun ishlovchi kasb-hunarlar taraqqiy etishiga turki berdi.

Shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi guzarlar, ko'chalar, bozor rastalari vujudga keladi. Hunarmandchilik sohasida to'qimachilik, kulolchilik, kandakorlik, yog'och o'ymakorligi, tosh o'ymakorligi, gilamdo'zlik va binokorlik yuksak darajada rivojlangan edi. Bu davrda shahar va qishloq aholisi o'rtasida to'qimachilik mahsulotlariga talab g'oyat yuqori bo'lgan. Shaharlarda ip, ipak, jun, zig'ir va kanop tolasidan turli rangdor, guldor hamda nafis va dag'al gazmollar to'qib chiqarilgan. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivoj topib, iste'mol mollarini ishlab chiqarish g'oyat ko'paydi. Bu davrda Mavorounnahrning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shoxruxiya, Andijon, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa ko'pgina shaharlari o'zining topografik qiyofasi, aholisining kasb-kori, ichki va tashqi aloqalari bilan o'rta asr Sharqining hunarmandchilik va gavjum savdo markazlariga aylandi.

Mahalliy va chetdan keltirilgan ipakdan turli nav shoyi gazlamalar to'qish keng yo'lga qo'yilgan. Ko'rib chiqilayotgan davrda ham, undan ancha avval ham to'quvchilik kasb-hunarning yetakchi tarmog'idan biri hisoblanardi. Oddiy va qimmatbaho bo'lgan xilma-xil matolar tayyorlanardi. XIV asr oxiri XV asr boshlarida qimmatbaho matolarga ehtiyoj oshib ketishi bu tarmoq uchun o'ziga xos xususiyat bo'ldi. O'ta qimmatbaho matolar tor doiradagi iste'molchilar talabini qondirish uchun tayyorlana boshladi. Aholining aslzodalar qismi uchun bayram libosi asosan shoyi, parcha va baxmaldan tayyorlanardi. Badavlat xonadonlarning ko'rpacha, ko'rpa,

yostiqlik kabi uy jihozlari ham shu matolardan edi. Shuningdek baxmal biron qimmatli buyumni o'rash uchun ham islatilgan. Ishratxona maqbarasiga vaqf etilgan mulk ro'yhatida (868/1463-64) baxmal uchraydi. Maqbara vaqfiga berilgan Qur'on aynan mana shu matoga o'ralgan edi. Samarqandda baxmalning to'q qizil rangli alohida turi tayyorlangan. Bu bo'yoq qizil deb ataluvchi hasharotdan olingan va baxmal turiga baxmali qizil degan nom berilgan. Qizil qimmatbaho bo'yoq hisoblangan. Bu bo'yoqning bir gramini olish uchun qizil degan zararkunandaning qanotsiz urg'ochisidan 150-175 ta, issiq suv va sirka kislotasi kerak bo'lgan. Bunday bo'yoq uzoq mamlakatlardan olib kelingan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Lekin ancha keyingi davr manbalarida bu hasharot Buxoro xonligi cho'llaridagi butazorlarda uchirishi qayd etilgan. Bunday mato boshqa mamlakatlarga ham olib ketilganligi uning qimmatbaholigi va oliy sifatliqligiga dalolatdir. «Samarqandning yana bir mato qizil mahmaldurkim, atrof va javonibqa eltarlar»[9].

Oliy navli jun mato — siqarlot ham qizil rang bilan bo'yalar edi. Siqarlotdan yuqori tabaqa vakillari uchun uski kiyimlar tikilgan. Shuningdek, undan qimmatbaho chodirlar ham tayyorlangan. Manbalarda keltirilishicha, onasi Gavharshodbegim Samarqandga tashrif buyurganida Mirzo Ulug'bek qizil natifa tortiq etgan[1].

Amir Temur va Temuriylar davrida qimmatbaho matolar orasida kimxob (kamka) muhim o'rin tutgan. Manbalarda yuqori lavozimli kishilarning uy jihozlari orasida kimxobdan tikilganlari ham eslatib o'tiladi. Jumladan, ko'rpa-to'shak, boshqa qimmatbaho buyumlar, shuningdek Qur'onni saqlash uchun kimxobdan tikilgan xalta va hokazo. Kimxobdan qimmatbaho libos ham tikilgan. Yozma manbalarda ayniqsa kimxob to'nlar tez-tez tilga olinadi. Amir Temur saroyiga o'zga yurtlardan kelgan elchilarga kimxob to'nlar kiydirilgan. Masalan, Samarqandga Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixo bilan kelgan kishilarga ham shunday to'nlar kiydirilgan. Qimmatbaho katan matosi ham aholining zodagon qismi orasida mashhur edi. Undan libos va dasturxon tayyorlangan. Alisher Navoiyning yozishicha, savdogarlar katanni bo'z narxida sotib olishni, bo'zni esa katan narxida sotishni orzu qilardilar[2].

Amir Suhrobning qizi Habiba Sulton begim nomidan 1464-yili Samarqanddagi maqbaralardan biriga vaqf etilgan mulklar orasida qabr ustiga misr katanidan tayyorlangan yoping'ich yopilgani eslatib o'tiladi. Samarqandlik Ustod Tangriberdiboyning merosini o'zida aks ettirgan hujjatda esa boshqa mol-mulklar bilan bir qatorda katandan tikilgan beshta to'shak ko'rsatib o'tilgan[7]. Markaziy Osiyo shaharlarida katan ishlab chiqarilgani haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Amir Temur va Temuriylar davrida katanni asosan Misr yetkazib berar edi.

Yozma manbalarda hind, misr fo'talari tilga olinadi. Samarqand hududida ham fo'ta ishlab chiqarilgan. Samarqandlik fo'ta to'quvchi ustalar — Ustod Shohmuhammad fo'tabofga Mir Muhammad degan bola, Ustod Subhiga esa Subhonquli ismli bola shogirdlikka olinganligi haqidagi qozilik hukmlari mavjud.

Amir Temur va Temuriylar davriga oid manbalardan o'sha davrlarda tafta nomini olgan yupqa, silliq ipakli matodan foydalanilgani ma'lum. Husayn Xorazmiyning vaqf yorlig'iga ko'ra, taftadan salla tayyorlangan[7].

Buxoro yaqinidagi qachonlardir zandanachi gazmoli ishlab chiqaruvchi ustaxonalari bilan mashhur bo'lgan Zandana qishlog'i shular jumlasidan. Buxoro yaqinidagi Olachabofan qishlog'i aholisi olacha ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lgan. Bunday qishloqlar hunarmandlari ishlab chiqargan mahsulot, odatda, o'zga mamlakatlarda sotish uchun mo'ljallanar edi. Mato tabiiy bo'yoqlarda bo'yalgan. Bibixonim dahmasidan topilgan va orada olti asr o'tganiga qaramay o'zining rangli bezagini yo'qotmagan nim chirigan

mato parchasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bo'yoq tayyorlashda tarkibiy qismlar og'irliklari nisbatiga alohida e'tibor berish lozim bo'lgan, bunda maxsus tarozi va o'lchov toshlaridan foydalanilgan. Rang tayyorlash usuli ko'p yillik mehnat va tajriba asosida takomillashgan va, odatda, sir tutilgan.

Farg'ona aholisining, ayniqsa, quyi va o'rta tabaqa vakillarining kiyimi asosan vodiyni o'zida tayyorlangan. Boshqa hududlardan keltirilgan gazlamalarni sotib olish uchun quyi va o'rta tabaqa vakillarining xarid quvvati doim ham yetarli bo'lmagan. Quyi va o'rta tabaqa vakillarining asosan ipdan tayyorlangan gazlamalarni kiyganligi, hunarmandchilikda ushbu sohaning eng ko'p tarqalganligidan dalolat beradi. Shoyi gazlamalar asosan yuqori tabaqa vakillari tomonidan sotib olingan va ularning bir qismi chetdan ham keltirilgan[10]. Yuqori tabaqa vakillari uchun mahsulot tayyorlashga ixtisoslashgan alohida tikuvchilar toifasi ham shakllangan. Xondamir Umarshayx mirzo uchun kiyim-kechak tikuvchi xoja Muhammad haqida ma'lumot qoldirgan[11]. Ushbu ma'lumot har bir shaharda yirik beklar va ulamolalar uchun xizmat qiluvchi tikuvchilar jamoasi shakllanganligidan dalolat beradi.

Temuriylar davrida hunarmandchilikning kulolchilik tarmog'i ham yuksak darajada rivoj topadi. Hunarmand kulollar turli idish-tovoqlar yasashgan. Amir Temur qal'asi hududida topilgan XV asr arxeologik osori atiqalari orasida har xil kosa, katta va kichik laganlar, tog'ora, shuningdek chiroq mavjudligi buning dadilidir[4]. Bu davr kulolchiligida ma'lum darajada xitoylik ustalar tomonidan yasaladigan chinni mahsuloti va shunga oxshash boshqa mahsulotlariga oxshash mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan edi. Movarounnahrda Samarqand va axis shaharlari kulolchilikning ma'lum manodagi markaziga aylanadi. Yuqori sifatli koshinkor buyumlar tayyorlangan bo'lib, ular sidirg'a oq sirli, sirtiga to'q zangor va yashil, bazan qora yoki qizg'ish naqshlar tushirilgan. Qimmatbaho mahsulotlardan tashqari oddiy xalq uchun ham kundalik ehtiyojlari va sug'orma dehqonchilik ahamiyati oshib borishi bilan chig'ir-charxpalaklar uchun turli xil buyumlar ishlab chiqarilgan.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Farg'onada hunarmandchilikning eng keng tarqalgan tarmoqlaridan biri kulolchilik edi. Kulolchilik mahsulotlarining ko'plab topilishi va ularning tadqiq etilishi ushbu sohaning vodi y iqtisodiyotida muhim o'rin tutganligini xususidagi xulosaga olib keladi[10]. Andijon shahri vodiydagi kulolchilik markazlaridan biri bo'lganligi olib borilgan arxeologik yodgorliklar orqali aniqlangan. Andijon shahri hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida kulolchilik mahsulotlarining o'tda pishirishda ishlatiladigan sepyolar va kulolchilik mahsulotlari kompleksi topilgan[8].

Rassom-naqqoshlar yassi laganlar yoki bejirim kosalar sirtiga qush, gul, afsonaviy qaqnus yoki bug'ular tasviri tushirilgan rasmni bemalol joylashtirardilar. Mamlakatda tasviriy mavzularning yoyilishi Xitoy chinnisi ta'sirida ro'y berdi, ammo Eron va Markaziy Osiyo ustalari asarlarida Uzoq Sharq mavzulari ko'pincha mo'l naqshin bezak ichiga go'yo singib ketardi. Tubida mahalliy an'anaviy bezak bo'lgan olti burchakli yulduz va oq fonga zangori bo'yoq bilan ishlangan xira naqshli qayrilma bezak tasvir etilgan XIV — XV asrlar Samarqand sirkor lagani Temuriylar davri keramikasining namunasidir. Undagi manzarada Xitoy chinnisidan nusxa ko'chirishdan chekinish va mahalliy bezak namunalarini izlashga intilish ko'zga tashlanadi. Temuriylar davrida rang-barang bo'lmagan, asosan muayyan uslubdagi o'ta jo'n geometrik rasmlardan iborat qora sirkoriy naqshli zangori keramika ham keng tarqaldi. Movarounnahming eng yirik shahar markazlari: Buxoro, Toshkent, Axsikent, Urganch, Shahrisabz va saltanat poytaxti Samarqandda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida badiiy bezagi jihatidan noyob

idish namunalari topildi. Mazkur namunalar hashamdor va kundalik turmushda ishlatilgan oddiy idishlar guruhiga bo'linadi. Ya'ni yuqori sifatli hashamdor idishlar mehmon kutish tantanalarida dasturxon bezatishda yoki mehmonxona tokchalarini yasatishda asqotgan. Oddiy idishlar esa, odatda, oilaning kundalik turmushida ishlatishga mo'ljallangan[3]. Temuriylar davriga kelib kulolchilik madaniyatida katta

o'zgarishlar ro'y berdi, eski uslubdan voz kechish jarayoni kecha bordi. Shu bilan birga yangi uslub, shakl, ranglarga o'tish keng ko'lamda joriy etildi. Shu kungacha saqlanib qolgan moviy rang Temuriylar davridan buyon sevimli rangga aylanib qolganki, u uy-ro'zg'or sopol buyumlarida hanuz ishlatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдураззох Самархандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Форс тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳли луғатлар муаллифи А.Уринбоев. Тошкент, 1969,
2. Алишер Навои. Махбуб ал-кулуб. Подг. к изд. А.Н.Кононов. М.-Л., 1948, с.
3. Амир Темур жахон тарихида С.Саиддосимов (рахбар), А.Ахмедов, Б.Ахмедов ва бошқ. Тулдирнлган ва кайта ишланган иккинчи наشري. — Т.: «Шарк», 2001.-
4. БуряковЮ.Ф.Коллекция бронзовых художественных изделий XIV-начала XV века из Самарканды./ / Обществнне наукив Узбекистане,1969,№8-9,с.27
5. Вакуфный документ Ишратхана, с. 126
6. Вакфная грамота Хусейна Хорезми, ЦГА УзР, ф. И-323, д. 1225, л. 27-а
7. Мажмуайи васоик. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 1386, 229-в; Вяткин В.Л.
8. Матбобоев Б.Х., Машрабов З.З. Андижон тарихи. — Т.: «Sharq», 2014.
9. З.М.Бобур -“Бобурнома”, “Ўқитувчи” , Т: 2008, 153-6 107-6.
10. Усмонов Б. Фарғона водийси Амир Темур ва темурийлар даврида. — Фарғона: “Фарғона” нашриёти, 2019.
11. Хондамир. Ҳабиб ус- сийар.